



INGLIZ TILIDA KARDIOLOGIYA SOHASIGA OID TERMINLARNING DIAXRON TAHLILI.

Karimova Baxriniso Islombek qizi

Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: baxrinisokarimova1997@gmail.com

Annotation This article analyzes the diachronic development of cardiological terms in English. In addition to exploring the etymology of lexical units in this field, the study examines the languages from which these terms originated. The analysis reveals that the formation of cardiological terminology dates back to ancient times, with many terms entering the language through Greek.

Keywords: Greek language, Latin language, etymology, Hippocrates

Аннотация В данной статье проводится диахронный анализ кардиологических терминов в английском языке. Помимо изучения этимологии лексических единиц данной области, исследуется, из каких языков произошли эти термины. Анализ показывает, что формирование кардиологической терминологии уходит в глубокую древность, и многие термины вошли в язык через греческий.

Ключевые слова: греческий язык, латинский язык, этимология, Гиппократ

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilida kardiologik terminlarning diaxron tahlili ushbu soha leksik birliklarining etimologiyasi bilan bir qatorda uning qaysi tillardan kelib chiqqanligi ham tahlil etiladi. Tahlil jarayonlari shuni ko‘rsatdiki soha terminologiyasi shakllanishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi hamda ko‘plab kardiologik terminlar yunon tili orqali kirib kelgan.

Kalit so‘zlar: yunon tili, lotin tili, etimologiya, Gippokrat

Kirish

Dunyo miqyosida ko‘plab sohalar singari terminologiya ham uzluksiz ravishda rivojlanib borayotgan sohalar tarkibiga kiradi. Ushbu soha inson paydo bo‘lganidan buyon mavjud bo‘lgan deb bilsak, u toki ilm-fan rivojlanar ekan tizimli va uzluksiz ravishda taraqqiy etadi. Har qanday yuzaga chiqqan kardiologiya sohasiga doir terminlar turli tillar doirasida o‘zlashtirilishi va ilm ahliga, oddiy xalqqa talqin etilishi zarurdir. Bu esa ushbu sohani o‘rganishning dolzarbligini saqlab qoladi. Ushbu sohani o‘rganish tilshunosh olimlar orasida keng tarqalgan va shu o‘rinda terminologiya tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi.

Adabiyotlar tahlili

Ingliz tilida kardiologiya sohasiga oid terminlarning etimologiyasi juda qadimiy bo‘lib, asosan yunon tilidan kirib kelgan atamalar lotinchalashishi yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri yunon tilidan ingliz tiliga kirib kelgan. Sivilizatsiyalar jarayonlaridan esa ularning semantikasi, morfoloqik tuzilishi o‘zgarishlarga uchragan. Ushbu linguistic jarayon ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, xususan xorijiy mutaxassislardan V.M.Florenskiy, S.V.Grinev, Bozena Dzuganova, E.A.Andrews, F.A.Simon kabilarning olib brogan ilmiy tadqiqotlari shular jumlasidandir. Ushbu maqolani yoritishda yuqoridagi olimlar ishlari tahlil etildi. O‘zbek tilshunos olimlarining ham tibbiy terminlarning kelib chiqish mavzusida olib borgan izlanishlari ko‘lami keng bo‘lib, bulardan F.I.Abdulxairova tibbiy terminlar lug‘atini, A.Qosimovning “Tibbiy terminlar izohli lug‘ati” va M.U.Abdurahmonova esa kasallik nomlarining tahlili shular jumlasidandir.

Tadqiqot metodologiyasi: ushbu maqola ingliz tilida kardiologiya sohasi terminlarining etimologiyasi tahliliga asoslangan bo‘lib, unda ingliz tilida kardiologik kelib chiqish va ingliz tiliga kirib kelish usullari va ularning o‘zbek tildagi tarjimalari tahlili uchun qiyosiy metoddan keng foydalanilgan. Tadqiqot usullarida tasniflash metodi (atamalarni tarixiy yasaliq usuliga ko‘ra), qiyosiy tahlil metodi, statistik tahlildan foydalanilgan.tadqiqot jarayonida faqat kardiologiya sohasiga doir 200 dan ortiq terminlar o‘rganildi va yasaliq usullari tahlil etildi.

Asosiy qism

Terminshunoslik tilshunoslikning muhim bir qismi bo‘lib, unda o‘rganiladigan termin so‘zi quyidagicha ta‘riflanadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da termin [lot. (terminus – chek, chegara] Fan, texnika, kasb-hunarining biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi.²⁹⁰ Terminologiya esa [lot. terminus - chegara + yun. logos – fan, ta‘limot]. Olamning ilmiy-me‘yoriy manzarasini terminlarsiz tasavvur qilish qiyin. Chunki terminlar ilmiy matn hosil qiluvchi tayanch birliklar vazifasini bajaradi. Termin va terminologiya leksik birligi rivojlanishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Qadimda bu so‘z (lot. terminus – chegara, chegaraviy nuqta, oxir) “eshik qo‘riqchisi, muqaddas hudud qo‘riqchisi, himoyalangan hudud, madaniyat chegarasi doirasidagi hamma narsaning qo‘riqchisi” ma‘nolarini anglatgan.²⁹¹ Falsafiy nuqtayi nazardan esa bu tushuncha Aristotel tufayli shakllangan. U terminlarga alohida so‘z birliklari sifatida e‘tibor bergan birinchi olimlardan biri bo‘lib, termin tushunchasini tibbiyot, ilohiyot, falsafa va boshqa ko‘plab fanlarga kiritgan.²⁹²

Maqolada o‘rganilayotgan soha aynan kardiologik terminlar bo‘lganligi sababli kardiologiya atamasining kelib chiqishiga e‘tibor qaratishni lozim deb topdik. Cardiology so‘zining ingliz tilida kelib chiqishiga nazar tashlasak, **etymonline**²⁹³ - onlayn etimologik lug‘atida *cardio* yunon tilida ifodalanuvchi *kerd*-yurak so‘zining lotin tiliga moslashtirigan

²⁹⁰ O‘zbek tilining izohli lug‘ati: Toshkent.,2008-yil. 73-bet

²⁹¹ Флоренский П.А. У водоразделов мысли. // Священник Павел Флоренский. М.: Мысль, 2000. Т. 3 (1), С. 375

²⁹² Гринев С.В., Лейчик В.М. К истории отечественного терминоведения [Электронный ресурс]. URL: [http://www.viniti.ru/cgi-bin/nti/nti.pl? action =show &year=l_1999&issue=7& page =1/](http://www.viniti.ru/cgi-bin/nti/nti.pl? action =show &year=l_1999&issue=7& page =1/ (дата обращения 23.02.2011).) (дата обращения 23.02.2011).

²⁹³ <https://www.etymonline.com/word/cardiology>

shakli kardia so‘zi indoyevropa ildiziga borib taqaladi, -logy esa so‘z yasovchi qo‘shimcha bo‘lib, risola, nazariya, ta‘limot degan ma‘noni anglatadi. Bu qo‘shimcha o‘rta asr lotin tilidagi *-logia*, fransuz tilidagi *logie*, yunon tilidagi *-logia* so‘zlari asosida shakllangan bo‘lib, *legein* (aytmoq, gapirmoq) fe‘lidan kelib chiqqan. Umumiy olganda bu termin muayyan mavzuni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi shaxsning xususiyatlarini anglatadi. The history of medical terms goes all the way back to the ancient Greeks, specifically Hippocrates. According to the National Institutes of Health, the oldest recorded medical writings are the Hippocratic records from the 4th and 5th centuries BC. Greek and Latin words are still used in modern medical terminology, building on this tradition. In fact, it’s thought that the Greek physician Galen’s writings, which have influenced the world of medicine for almost 1,500 years, are the main reason so many Greek words persist in medical terminology today.²⁹⁴

Ingliz tilida kardiologiya sohasi terminlari yillar davomida rivojlangan soha hisoblanadi. Ushbu maqolada Angliya tarixida tibbiyot hamda kardiologiya sohasiga doir terminlarning kelib chiqish tarixi va qaysi tillardan derivatsiya bo‘lganligini aniqlashni maqsadga muvofiq deb bildik. Ingliz tibbiy terminologiyasi o‘rta asr lotin terminologiyasidan rivojlanib, unda yunon terminologiyasining katta ta‘siri bo‘lgan. Ingliz tilining eng qadimgi rivojlanish davridan (Anglo-Sakslar davridan) faqat bir nechta tibbiy atamalar kelib chiqqan. O‘rta asrlarda fransuz tili yunon/lotin elementlaridan rivojlangan yangi tibbiy atamalarni kiritish uchun ajoyib vositaga aylandi.²⁹⁵ Xalqaro tibbiy terminologiya va uning bir qismi bo‘lgan ingliz tibbiy terminologiyasi 2500 yillik uzoq tarixga ega. Tibbiyot rivojiga hissa qo‘shgan har bir millatning tili zamonaviy tibbiy ingliz tilida ham o‘chmas izlar qoldirdi. Evropada tibbiyot rivojida juda muhim rol o‘ynagan eng qadimgi til yunon tili bo‘lgan. Makedoniya imperiyasining qulashidan keyin ham uzoq vaqt davom etgan yuqori darajadagi tibbiy maktablar tufayli yunon tili Qadimgi Rimda imperiyaning qulashigacha shifokorlar tili bo‘lgan. Birinchi muhim lotin tibbiy asarlar va tarjimalar o‘rta asr lotin tilida paydo bo‘ldi, bu esa klassik lotin tiliga qaraganda yunon tiliga yaqinroq edi ²⁹⁶. Qadimgi Yunonistonda ilmiy til oddiy tildan ajralib chiqqan bo‘lsa, Qadimgi Rimda yangi hodisa — yunon-lotin ikki tilli terminologiyasi rivojlana boshladi.²⁹⁷ Ilmiy izlanishlarimiz davomida ko‘plab kardiologik terminlarning kelib chiqish tarixini o‘rgandik va quyida ularning bir qanchalarini tahlilga tortishni ma‘qul deb topdik.

Saqlanib qolgan yunoncha kelib chiqishga ega bo‘lgan bir qator inglizcha kardiologik atamalar orasidan biz quyidagilarni tanladik:

Yunon tilidagi atama	Ingliz tili atama	Ushbu so‘z bilan ifodalanuvchi sifat va kasallik
Kardia	Cardia	Cardiac(yurakka oid), carditis(yurak yallig‘lanishi)

²⁹⁴ <https://www.cipcourses.com/blog/what-is-medical-terminology/#:~:text=The%20history%20of%20medical%20terms,4th%20and%205th%20centuries%20BC.>

²⁹⁵ Božena Džuganová “A brief outline of the development of medical English” Bratislavske Lekarske Listy · February 2002

²⁹⁶ Andrews E. A history of scientific English. The story of its evolution based on a study of biomedical terminology. New York, Richard R. Smith 1947.

²⁹⁷ Šimon F. O historickom výskume medzinárodnej lekárskej terminoló- gie. Bratisl Lek Listy 1989; 90 (1): 48—55.

Endon cardia	Endocardia	Endocardial, Endocarditis
Peri cardia	Pericardium	Pericardial, Pericarditis
Myo kardia	Myocardium	Myocardial, myocarditis
Arteria	Artery	Arterial, arteritis
Iskhaimos	Ischemia	Ischemic
Stenosis	Stenosis	Stenotic

Bundan tashqari ko‘pgina yunoncha tibbiy atamalar ingliz tiliga lotincha “qiyofa”da (lotincha qo‘shimcha yoki imlo bilan) kirib kelgani izlanishlar davomida aniqlandi va kardiologik terminlar ham o‘rganilganda ushbu soha leksik birliklari orasida ham umumiy tibbiy terminlar kabi ko‘plab yunon tilidagi atamalar lotincha shaklda kirib kelganini aniqlandi.

Yunoncha termin	Lotincha shakli	Ingliz tilidagi shakli	Izoh
<i>Rhythmos</i>	<i>Rhythmus</i>	<i>Rhytm</i>	Yurak ritmi bilan bog‘liq
<i>Sphygmōs</i>	<i>Sphygmus</i>	<i>Sphygmology</i>	Pulsni o‘lchashga oid fan
<i>Tachys</i>	<i>tachy</i>	<i>tachycardia</i>	Yurak urushining tezlashishi
<i>Bradys</i>	<i>Brady</i>	<i>Bradycardia</i>	Yurak urushining sekinlashishi
<i>Hypertrophia</i>	<i>Hypertrophia</i>	<i>Hypertrophy</i>	Yurak mushaklarining kattalashishi
<i>Hypertonia</i>	<i>Hypertonia</i>	<i>Hypertension</i>	Qon bosimining ortishi
<i>Hemorrhagia</i>	<i>Haemorrhagia</i>	<i>Hemorrhage</i>	Qon tormiridan qon ketishi
<i>Aneurysma</i>	<i>Aneurysma</i>	<i>Aneurysm</i>	Arteriya devorining kengayishi
<i>Embolos</i>	<i>Embolus</i>	<i>Embolism</i>	Qon tomirining tiqilib qolishi

Izlanishlar shuni ko‘rsatdiki yunoncha kelib chiqishga ega bo‘lib, lotincha qiyofaga kirib kelgan atamalarnin uch toifaga bo‘lishimiz mumkin.

1. Yunon tilidan o‘zgarishsiz ya’ni lotin tili shaklida o‘zgarishsiz bevosita o‘tgan atamalar: *Aneurysma*→*aneurysm*, *hypertonia*→*hypertension*, *hypotonia*-*hypotension*.

2. Lotin orqali o‘zgarish bilan o‘tgan yunoncha atamalar: *kardia* → *cor* (lot.) → *cardiac*, *cardiology*, *sphygmōs*→ *sphygmus* (lot.) → *sphygmology*, *thrombos* → *thrombus* (lot.) → *thrombosis*.

3. Qisman o‘zgargan yoki qisqartirilgan shakllar: *hypertrophia*→ *hypertrophy*, *tachys*+ *kardia* → *tachycardia*, *bradys* + *kardia* → *bradycardia*.

Xulosa

Ushbu maqola to‘xtovsiz rivojlanayotgan tibbiyot terminologiyasining muhim sohalaridan biri bo‘lganligi sababli ham u o‘z dolzarbligini saqlab qolgan. Ingliz tilidagi zamonaviy kardiologik terminlarning barchasi sof ingliz tilidagi leksik birliklar emas. Ularning aksariyati etimologiyasi yunon va hozirda o‘lik til hisoblangan lotin tiliga borib taqaladi.

Bunday soha terminlar davrlar mobaynida til bilan birga rivojlangan va bir qancha o‘zgarishlarga uchraganini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: Toshkent.,2008-yil. 73-bet
2. Флоренский П.А. У водоразделов мысли. // Священник Павел Флоренский. М.: Мысль, 2000. Т. 3 (1), С. 375
3. Гринев С.В., Лейчик В.М. К истории отечественного терминоведения [Электронный ресурс]. URL: http://www.viniti.ru/cgi-bin/nti/nti.pl?action=show&year=1_1999&issue=7&page=1/ (дата обращения 23.02.2011).
4. Božena Džuganová “A brief outline of the development of medical English” Bratislavske Lekarske Listy · February 2002
5. Andrews E. A history of scientific English. The story of its evolution based on a study of biomedical terminology. New York, Richard R. Smith 1947.
6. Šimon F. O historickom výskume medzinárodnej lekárskej terminoló- gie. Bratisl Lek Listy 1989; 90 (1): 48—55.